

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON UNIVERSITETI ANDIJON FILIALI
QO'QON UNIVERSITETI
TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY



TA'LIM VA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI ISTIQBOLLARI: HUQUQIY ASOSLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR, XORIJIY TAJRIBALAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
TO'PLAMI

II-JILD



ANDIJON-2025



b) Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar: Maqsadni belgilash; O'quv axborot mazmuni; Ta'lim vositalari; Yetakchi bilim manbai; O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Talabaning yuksak kamoli uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil qilinishiga, boshqarilishiga bog'liq bo'ladi. Har tomonlama rivojlangan shaxsning tarkib topishi uchun avvalo u ham ma'nan ham jismonan sog'lom bo'lishi, yuqori saviyadagi, sifatli ta'lim-tarbiya olgan bo'lishi kerak [6].

Fan doimo taraqqiyotda bo'lar ekan, inson ham doimo izlanishda, tadqiqotda bo'ladi, yangiliklarni ochishga, hayot farovonligini yaxshilashga harakat qiladi. Shunday ekan, hozirgi zamon talabalari ham fan asoslari bo'yicha chuqur bilim olish, fan yangiliklarini egallash, mustaqil fikrlash, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga harakat qiladi. Talabaning qiziqishlarini orttirish, bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur.

Adabiyotlar

1. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Science and innovations, 2023/2, 182-189 pp.
2. Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modelini yaratish. "Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O'zDJTU. 188-191 betlar.
3. Murodova A. B. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY LAYOQATLARIN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 259-263.
4. Hamidov J., Muradova A. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY.
5. Muradova A. TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENT OF FUTURE ENGINEERS BY MEANS OF VIRTUAL EDUCATION TECHNOLOGY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 306-311.
6. Abdurasulovich H.J., Qizi M. A. Y. VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – C. 182-189.

BOSHLANG'ICH TA'LIM YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

N.Jurayev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

jurayevnuriddin09@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim talabalari orasida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Kreativlik ta'lim jarayonida yangicha yondashuv, ijodiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining

shakllanishini ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'lim talabalari ijodiy faoliyatga qiziqishi yuqori bo'lib, ularda mantiqiy fikrlash, tasavvur, muammoni original yechimlar bilan hal etish imkoniyatlari tez rivojlanadi. Pedagogik jarayonda innovatsion metodlar, interfaol usullar, loyiha asosida o'qitish va milliy qadriyatlarga tayangan tarbiyaviy yondashuvlarning qo'llanishi talabalarda kreativ qobiliyatlarning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, oilaviy va ijtimoiy muhit, o'qituvchining kasbiy mahorati ham kreativlikni rivojlantirishda muhim omillar sifatida qayd etiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, boshlang'ich ta'lim, talaba, qobiliyat, psixologik omillar, pedagogik yondashuv, innovatsion metod, ijodiy tafakkur, mustaqil qaror, loyiha asosida o'qitish, interfaol usul, milliy qadriyatlar, ta'lim texnologiyasi, ijtimoiy muhit, o'qituvchi mahorati.

Annotation: This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of developing creative abilities among primary education students. Creativity in the educational process ensures the formation of innovative approaches, creative thinking, and independent decision-making skills. Primary education students demonstrate a high interest in creative activities, and their abilities to think logically, imagine, and solve problems with original solutions develop rapidly. The application of innovative methods, interactive approaches, project-based learning, and educational approaches based on national values contributes to the effective development of students' creative abilities. In addition, family and social environment, as well as the teacher's professional competence, are emphasized as significant factors in fostering creativity.

Keywords: creativity, primary education, student, ability, psychological factors, pedagogical approach, innovative method, creative thinking, independent decision, project-based learning, interactive method, national values, educational technology, social environment, teacher competence.

Аннотация: В данной статье проанализированы психологические и педагогические аспекты развития креативных способностей у студентов начального образования. Креативность в образовательном процессе обеспечивает формирование новых подходов, творческого мышления и навыков самостоятельного принятия решений. Студенты начального образования проявляют высокий интерес к творческой деятельности, у них быстро развиваются способности к логическому мышлению, воображению и решению проблем оригинальными способами. Применение инновационных методов, интерактивных подходов, проектного обучения и воспитательных подходов, основанных на национальных ценностях, способствует эффективному развитию креативных способностей студентов. Кроме того, семейная и социальная среда, а также профессиональное мастерство преподавателя отмечаются как важные факторы в развитии креативности.

Ключевые слова: креативность, начальное образование, студент, способности, психологические факторы, педагогический подход, инновационный метод, творческое мышление, самостоятельное решение, проектное обучение, интерактивный метод, национальные ценности, образовательная технология, социальная среда, мастерство преподавателя.

Kirish

1. Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya sohalarida eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Zero, zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor va yangiliklarga intiladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida bizga yangicha dunyoqarashga ega, ijodkor va tashabbuskor yoshlar kerak”. Ushbu fikrlar ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish qanchalik muhim ekanini ko'rsatib beradi. Boshlang'ich ta'lim davri – shaxsning poydevori qo'yiladigan, dunyoqarashi shakllanadigan, mustaqil fikrlashga ilk qadamlar qo'yiladigan davrdir. Shu sababli aynan ushbu bosqichda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi o'qituvchi va pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. [1. 819–823-betlar]

Kreativlik shunchaki san'atga oid qobiliyat emas, balki kundalik hayotda yangicha



yondashuv, muammolarga noodatiy yechim topish, o'z fikrini erkin ifodalash qobiliyatidir. Bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish psixologik jihatdan ularning qiziqishlari, bilishga intilishi, mustaqil izlanishlari orqali yuzaga chiqadi. Pedagogik jihatdan esa ta'lim metodlari, dars jarayonida qo'llaniladigan o'yinlar, mashg'ulotlar, interfaol usullar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Prezidentimizning "Yoshlar – kelajagimiz poydevori, ularning bilim va salohiyati mamlakat taraqqiyotini belgilaydi" degan so'zlari ta'lim jarayonida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi davlat miqyosida ham qanchalik muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Boshlang'ich ta'limda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish psixologik-pedagogik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Psixologik nuqtayi nazardan o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, intellektual salohiyati va emotsional holati hisobga olinadi. Chunki ijodiy yondashuv o'ziga ishonch, mustaqil fikr va yangilikka intilish orqali yuzaga keladi. Pedagogik jihatdan esa o'quv dasturlari, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar, mustaqil topshiriqlar va interaktiv mashg'ulotlar asosiy o'rin tutadi. Masalan, ertak tuzish, kichik loyiha ishlari, guruhli muhokamalar yoki rolli o'yinlar bolalarda nafaqat bilim, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradi. [2. 95–100-betlar]

Shu o'rinda Prezidentimizning yana bir so'zlarini keltirish o'rinlidir: "Biz farzandlarimizning nafaqat bilimli, balki tashabbuskor, ijodkor bo'lib voyaga yetishlarini istaymiz. Chunki kelajak poydevori bugun maktablarda qo'yilmoqda". Bu fikr, albatta, boshlang'ich ta'lim bosqichida kreativlikni rivojlantirishning naqadar muhimligini ochib beradi. Demak, ijodkorlik – bu faqat iqtidorli bolalar uchun emas, balki har bir o'quvchi uchun zaruriy sifatdir.

Bugungi kunda dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kreativlikni erta yoshdan shakllantirish kelgusida jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari va kreativ topshiriqlar orqali talabalarni yangicha fikrlashga undash zarur. Shuningdek, ota-onalar, jamiyat va maktabning hamkorligi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada qo'llab-quvvatlaydi. [3.50–56-betlar]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlarida keng muhokama qilinayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari, turli nazariy qarashlari hamda amaliy tajribalari mavjud bo'lib, ularning sharhi mavzuning ilmiy asoslarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Kreativlik tushunchasi ilk bor g'arb psixologiyasida keng qo'llanilgan bo'lib, J. Gilford, E. Torrens, K. Rodjers singari olimlar bu sohada alohida tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, J. Gilford kreativlikni inson tafakkurining divergent (ya'ni, turlicha yo'nalishlarda fikrlash) qobiliyati sifatida izohlagan. Torrens esa kreativlikni o'lchash uchun maxsus testlar ishlab chiqib, bu tushunchaning psixologik asoslarini ilmiy maydonga olib chiqqan. [4. 45-48-betlar]

Rossiya psixologiya maktabida ham kreativlik masalasi alohida e'tiborga olingan. Masalan, L.S. Vygotskiy va A.N. Leontyevlarning madaniy-tarixiy nazariyalari ijodiy faoliyatning rivojlanishida muhit va faoliyatning muhim o'rni borligini ko'rsatadi. Vygotskiy bolaning yaqin rivojlanish zonasi tushunchasini ishlab chiqqan bo'lib, bu jarayonda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikda ro'y berishini ta'kidlagan. Shuningdek, S.L. Rubinshteyn inson tafakkurini ijodiy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilgan. Mahalliy tadqiqotchilar orasida ham kreativlik va uni rivojlantirishga oid qator ilmiy ishlar yaratilgan. O'zbekistonlik pedagog-olimlar A. Abduqodirov, N. To'xliyev, Sh. Yusupov va boshqalar ta'lim jarayonida kreativ yondashuv, interfaol metodlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlab o'tganlar. Ularning ishlarida kreativ qobiliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, psixologik omillari va ta'limiy imkoniyatlari keng yoritilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va davlat dasturlarida ham kreativlikni rivojlantirish masalasi alohida o'rin egallaydi. [5. 22–28 -betlar]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yoshlar ijodkor, tashabbuskor va yangicha fikrlaydigan bo'lishi zarur. Shu bois, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Milliy o'quv dasturlari hamda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda ijodiy yondashuv asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishni faqatgina maxsus darslar yoki mashg'ulotlar doirasida emas, balki ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida kompleks yondashuv orqali amalga oshirish kerak. Bunda psixologik nuqtayi nazardan bolaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va motivatsiyasi hisobga olinadi. [6. 286–290 -betlar]

Pedagogik jihatdan esa o'quv metodlari, topshiriqlarni ijodiy shakllantirish, muammoli vaziyatlardan foydalanish va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar kreativlik tushunchasini ko'p qirrali, ko'p omilli jarayon sifatida izohlaydi. Uni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy mahorati, ta'lim muhitining erkinligi, interfaol usullar, hamkorlikdagi faoliyat va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Shu jihatdan, mavjud adabiyotlar tahlili boshlang'ich ta'lim talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun puxta nazariy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'lim talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish psixologik va pedagogik jihatdan chuqur o'rganishni talab etadigan jarayondir. Tadqiqot metodologiyasi bu masalani nazariy va amaliy asoslarda yoritishga xizmat qilib, tadqiqotchi uchun maqsad, ob'ekt, predmet, usullar, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatni belgilab beradi. Boshlang'ich ta'lim davrida talabalarida ijodkorlik, mustaqil fikrlash, yangi g'oya yaratish, muammolarga noodatiy yondashish xususiyatlari shakllanadi. Shuning uchun metodologiyada aynan shu davrning psixologik xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar alohida hisobga olinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ularning samarali shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni belgilashdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun kreativlikning nazariy asoslarini o'rganish, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarni o'rganib chiqish hamda yangi yondashuvlarni taklif etish kabi vazifalar ilgari suriladi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalar olinadi, predmet esa ularda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, kreativlikning rivojlanishi bir vaqtning o'zida psixologik omillar, pedagogik metodlar, ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi va shaxsiy qiziqishlarga ham bog'liqdir. Shuning uchun tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanadi.

Metodlar qatoriga kuzatish, suhbat, test, anketa, tajriba-sinov ishlari kiradi. Kuzatish orqali talabalar faoliyati real sharoitda o'rganiladi, suhbat va anketalar yordamida ularning qiziqishlari va motivlari aniqlanadi, testlar yordamida kreativlik darajasi baholanadi. Tajriba-sinov ishlari esa taklif etilayotgan metod va texnologiyalarning samaradorligini tekshirish imkonini beradi. Natijalar statistik tahlil asosida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqariladi. Ilmiy yangilik shundan iboratki, tadqiqot davomida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli o'rganiladi, nazariy qarashlar amaliy dalillar bilan boyitiladi, psixologik-pedagogik asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar ta'lim jarayonida qo'llanishi, boshlang'ich ta'lim dasturlarini boyitish, o'qituvchilarga metodik ko'rsatmalar berish va talabalar bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda ta'lim jarayonida yangicha fikrlash, kreativ yondashuv va tashabbuskorlikni rivojlantirish jamiyatimiz kelajagi uchun eng muhim vazifalardan biridir". Shu bois tadqiqot metodologiyasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etib, talabalarida ijodiy tafakkurni shakllantirish, yangicha qarashlarni rivojlantirish va mustaqil fikr yuritishga undash uchun muhim manba hisoblanadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadigan bo'lsa, eng avvalo, mavjud ilmiy yondashuvlar, tajribalar va amaliyotga asoslangan natijalarni ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Kreativlikni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari, ta'lim muhitining o'ziga xos jihatlari va o'qituvchining metodik mahorati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichidagi talabalar tafakkuri barqarorlashmagan, ammo tezkor o'sish va o'zgarish bosqichida bo'lgani uchun ular ijodiy faoliyatga juda moyil bo'ladilar. Shunday sharoitda o'qituvchining vazifasi ularni bir xil qolipdagi bilim olishdan ko'ra, mustaqil fikrlash, erkin ifodalash, yangicha yechimlar topishga yo'naltirishdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri — bu o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlash va ularga muammoli vaziyatlar asosida topshiriqlar berishdir. Masalan, oddiy mavzuni o'rganishda faqat tayyor ma'lumot berish emas, balki "siz bo'lsangiz qanday qilardingiz?", "yana qanday yo'l tutish mumkin?" kabi savollar orqali ularning tafakkurini o'stirish mumkin. Natijalar ko'rsatadiki, bunday metodlar qo'llanilganda o'quvchilar ko'proq qiziqish bildiradi, mustaqil izlanadi va ijodiy yondashuvlari kuchayadi. Bundan tashqari, psixologik tahlillar kreativlikni rivojlantirishda motivatsiya, ishonch va o'zini namoyon qilish imkoniyati muhimligini ko'rsatadi. O'quvchi o'zining fikri qadrlanishini sezsa, uning tashabbuskorligi ortadi. Aksincha, qat'iy chegaralangan, faqatgina "to'g'ri javob"ni talab qiladigan muhit ijodkorlikni cheklab qo'yadi. Shu boisdan ham boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion metodlar, interfaol mashg'ulotlar va o'yin texnologiyalari keng qo'llanishi ijobiy natija bermoqda.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida integrativ yondashuv muhimdir. Adabiyot, san'at, matematika va tabiatshunoslik fanlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, turli yo'nalishdagi mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda no'anaviy yondashuv va tafakkur shakllanadi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, fanlararo integratsiya o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, ularda yangilik yaratish, tasavvur qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar boshlang'ich ta'lim bosqichida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish samarali bo'lishi uchun uch asosiy yo'nalishga e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatdi: birinchidan, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni qo'llab-quvvatlash; ikkinchidan, motivatsion va qulay psixologik muhit yaratish; uchinchidan, o'quv jarayoniga innovatsion va integrativ metodlarni keng tatbiq etish. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aynan shu yo'nalishlarda izchil ish olib borilsa, boshlang'ich ta'lim talabalarida kreativ qobiliyatlar yanada samarali shakllanadi va ularning keyingi ta'lim bosqichlarida ijodkorlik salohiyati yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Xulosa

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativlik nafaqat ijodkorlik qobiliyati, balki mustaqil fikrlash, yangicha yondashuv, muammolarni noodatij hal etish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning tafakkuri, tasavvuri va qiziqishlari tez sur'atlarda shakllanib boradi, shu bois ularga to'g'ri metodlar bilan yondashish ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishda katta ahamiyatga ega. Psixologik jihatdan olganda, bu davrda bolalar yangilikka ochiq, tasavvuri keng va ijtimoiy muhitga tez moslashuvchan bo'ladilar. Pedagogik nuqtayi nazardan esa interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, ijodiy topshiriqlar, milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, oilaviy muhit, o'qituvchining kasbiy mahorati va ijtimoiy omillar ham kreativ qobiliyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uzluksiz, izchil va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati pedagoglarning yangicha fikrlashi, zamonaviy metodlardan samarali foydalanishi hamda oila va jamiyatning qo'llab-

quvvatlashiga bog'liqdir. Shu asosda shakllangan kreativ shaxslar kelajakda jamiyat taraqqiyoti va milliy rivojlanishning yetakchi kuchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shermamatova Z. A., Egamberdiyev O. E., Ergasheva M. A. Development of Students' Creativity Skills Based on Interactive Teaching Methods and Technologies. – Educational Research in Universal Sciences (ERUS), 2023. – 819–823-betlar.
2. Kulboyeva D. The Essence of Developing Creative Abilities in Primary School Pupils. – Current Research Journal of Pedagogics, 2023. – 95–100-betlar.
3. Kulboyeva D. Fostering Creativity Skills in Primary Pupils: A Case Study on Technology Science. – Frontline Social Sciences and History Journal, 2023. – 50–56-betlar.
4. Artiqlul Kudyarova. Innovative Teaching Techniques to Foster Creativity and Critical Thinking in Elementary Students. International Journal of Artificial Intelligence, 2024-07-14: 45-48 betlar.
5. Usmonnazarova, Shoiri Shukhrat kizi. Pedagogical Features of the Development of Creativity in Primary School Age. Vol. 3, No. 2 (2025), Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. 22–28 betlar.
6. Ibadullayeva, Shakhnoza Ilkhamovna. Psychological and Pedagogical Basis of Development of Students' Creative Skills through Decorative Landscape Drawing. Vol. 2, No. 4 (2024), Web of Teachers: Inderscience Research. 286–290 betlar.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Nizomov Feruz Raxmon o'g'li

Uzbekistan State World Languages University

+998 97 196 07 07, beknzomov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining o'рни, ularning imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. AI vositalari talabalarning mustaqil o'qishini qo'llab-quvvatlash, o'quv jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, akademik halollik, o'qituvchilarning yangi rolga moslashuvi va etik masalalar ham dolzarb muammolar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, ingliz tili o'qitish, ta'lim texnologiyalari, akademik halollik, innovatsiya.*

Аннотация. В статье рассматривается использование технологий искусственного интеллекта (AI) в обучении английскому языку. Подробно анализируются преимущества, такие как персонализированное обучение, автоматическая обратная связь и расширение возможностей самостоятельного образования студентов. Наряду с этим подчеркиваются проблемы академической честности, изменение роли преподавателя, связанные с применением AI.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, обучение английскому языку, образовательные технологии, академическая честность, инновации.*

Abstract. This article explores the application of Artificial Intelligence (AI) in English Language Teaching (ELT), focusing on both opportunities and challenges. It highlights the potential of AI for personalized learning, instant feedback, and learner autonomy, while also addressing issues such as academic integrity, teacher roles, and ethical considerations. The study concludes that AI should complement rather than replace teachers, and its effectiveness depends on careful pedagogical integration.

Keywords: *Artificial Intelligence, English Language Teaching, educational technology, academic integrity, innovation.*

Artificial Intelligence (AI) has become one of the most discussed innovations in modern education. In English Language Teaching (ELT), AI is increasingly used to design interactive learning environments, automate assessment, and assist teachers with routine tasks. The growing



**Kokand
University**

KU
University
ANDIJON FILIALI



Qo'qon universiteti Andijon filialida o'tkazilgan

“TA'LIM VA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI ISTIQBOLLARI: HUQUQIY ASOSLAR,

MUAMMO VA YECHIMLAR, XORIJIY TAJRIBALAR”

mavzusidagi respublika ilmiy–amaliy konferensiyada

BOSHLANG'ICH TA'LIM YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI
RIVOJLANTIRISH: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

nomli maqola bilan faol ishtiroki uchun

N. JURAYEV

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi



Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor

I.G. MAMAJONOV

22.10.2025 y.